

MUNCHOQTEPA ARXEOLGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI

Ra'no Ergasheva

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyatida joylashgan Munchoqtepa arxeologik yodgorligining o'rganilish tarixi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Balandtepa, Temirqasmoqtepa, Munchoqtepa, qabriston, Namangan viloyati arxeologiyasi

Abstract: This article analyzes the study of the archaeological site of Munchoqtepa, located in Namangan province.

Keywords: Balandtepa, Temirkasmoqtepa, Munchogtepa, cemetery, archeology of Namangan region

Аннотация: В данной статье анализируется история археологического памятника Мунчоктепа, расположенного в Наманганской области.

Ключевые слова: Баландтепа, Темиркасмоктепа, Мунчогтепа, кладбище, археология Наманганской области

KIRISH

Farg'ona vodiysi – atrofi tog'lar bilan o'ralgan ulkan makondir. Bu yerning birgina g'arbiy tomoni ochiq bo'lib, uncha katta bo'lmagan kenglik bilan Mirzacho'lga tutashgan. Vodiy atrofidagi tog'lar o'z hududini bir tomondan issiq va sovuq iqlim oqimidan saqlasa, ikkinchi tomondan, o'z bag'rida O'rta Osiyoning asosiy suv manbai – Sirdaryoning boshlanishiga zamin yaratgan.

Namangan Farg'ona vodiysining tarkibiga kiruvchi uchta viloyatning biridir. Viloyat O'zbekiston Respublikasining sharqida, vodiyning shimoli-g'arbida, Tyanshan tog' tizmasi tarmoqlari bo'lgan Qurama va Chatqolning yon bag'rida joylashgan. Shimol va shimoli-sharqdan Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, janubi-sharqdan Andijon, janubdan Farg'ona, shimoliy va shimoli-g'arbdan Toshkent viloyati va Tojikistonning Sug'd viloyati bilan chegaradosh.

Namangan viloyatida hozirgi kunda arxeologik qidiruv ishlari jadal tarzda olib borilmoqda. Bulardan biri esa, Pop shahridan 2 km. janubda, Sirdaryo bo'yida joylashgan Munchoqtepa yodgorligidir.

TADQIQOT

Pop shahrida o'tkazilgan ekspeditsiya natijasiga ko'ra, bu yerdan Balandtepa va Temirqasmoqtepa shahar xarobalari, Munchoqtepa shahar qabristoni topilgan. Munchoqtepa mozoridagi qabrlarni o'rganishda Balandtepa I da qilingan ishlarning ahamiyati juda muhim. Buning sababi ikki yodgorlikdan ham bir-biriga o'xshash

topilmalarning aniqlanganligidir va shu sababdan ham ikki yodgorlikda bir vaqtning o'zida qidiruv ishlari amalga oshirildi.

Yodgorlikni ilk bor 1939-yili Katta Farg'ona kanali qazilishi paytida tashkil etilgan arxeologik ekspeditsiyasi ochgan. Keyinroq, Namangan viloyat o'lkashunoslik muzeyi hodimlari I. Malenkov va A. Shlezlar Balandtepadagi arxeologik izlanishlar bilan shug'ullanadi. Arxeologik qidiruv ishlari esa, 1946-1948-yillar va 1950-1952-yillar A. N. Bernshtam rahbarligida Ayrtom, Munchoqtepa, Balandtepa yodgorliklarida olib borildi. M. E. Vorones arxeologik qazishmalarining natijasiga ko'ra, Balandtepa X-XI asrlarga oid bo'lgan shahar xarobasi deb aniqlaydi. Shunday xulosaga A. N. Bernshtam ham kelib, xozirgi Pop shahri yaqinida taxminan 12 kv.km. maydonda yirik shahar qad ko'targanligini e'tirof etgan [1. B – 53]. Shundan keyin turli yillarda V. I. Sprishevskiy, I. Axrorovlar arxeologik qazishma ishlarini olib boradi.

1983-yili M. X. Isomiddinov kichik qidiruv ishlarini amalga oshirgan va bu yerda qazishma o'tkazishni tavsiya qilgan. Shundan so'ng M. X. Isomiddinov Axsikent otryadining moliyaviy yordami bilan 1987-1994-yillarda qazuv ishlarini amalga oshirgan. Bu ekspeditsiya davomida Pop atrofidagi Balandtepa, Munchoqtepa, Ayrtom, Qirq Xujra kabi yodgorliklarida 1987-yildan buyon tekshiruv-qidiruv ishlari olib borildi. Bu joylar milodiy eradan oldingi eraning oxirlaridan to XIII-XIV asrlarga taalluqli bo'lgan [2. B – 39]. Asosiy e'tibor Pop shahrining tarixi bilan bog'liq bo'lgan yodgorliklarni o'rganishga qaratildi. Ushbu ekspeditsiya davomida Munchoqtepa qabristonida ilmiy-qidiruv ishlari olib borildi. Qadimgi qabriston Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida, hozirgi Pop shahridan 1,5-2 km. janubi-g'arbda joylashgan. Qabrlar ustiga uyulgan tuproqlar ma'lum vaqt o'tishi bilan tekislanib, xo'jalik maqsadlarda foydalanilgan. Shuning uchun ham, qabristonning faqat shimoli-sharqiy va janubi-g'arbiy tepaliklari saqlanib qolgan xolos. Ular shartli ravishda Munchoqtepa I va II deya nomlanadi [1. B – 72].

1988-yil jahonshumul ahamiyatga molik arxeologik kashfiyot qilindi. Munchoqtepa I yodgorligida yakka tartibdagi qabrlar, Munchoqtepa II dan esa V-VIII asrlarga oid bo'lgan yerosti xilxonalari o'rganildi, ularni bunyod etishda loy, g'isht, yog'och kabi qurilish materiallaridan foydalanilmagan. Xilxona tuzilishi 4 qismdan iborat:

1. Kirish qismi oldidagi maxsus tekislangan maydon;
2. Kirish qismidagi inshoot (peshayvon);
3. Yerosti yo'lagi va uning oxirida pastga (jasadxonaga) tushiladigan zinapoya;
4. Jasadxona.

Jasadxona xuddi uyga o'xshab shiftlari arksimon qilinib, devorlari va pollariga juda ustalik bilan jilo berilgan [3. B – 820]. Munchoqtepa I qabristonida 14 ta yakka

tartibda ko'milgan qabrlar o'rganildi. Ulardan 9 tasi oddiy go'r va 5 tasi yorma go'r.

Oddiy go'rlar unchalik chuqur emas, ularni ko'mishda shimol yo'nalishini tanlash moyilligi sezilib turadi, ya'ni skelet bosh tomoni bilan ko'proq shimol, shimoli-g'arb va shimoli-sharq tomonlarga qaratib dafn etilgan. Hamma skeletlar chalqanchasiga yuzi yuqoriga qaratilib yotqizilgan. Ular bilan birga kerakli ashyoviy dalillar ham saqlanib qolgan.

Yorma go'rlar oddiy go'rlarga qaraganda chuqurroq qilib kovlangan. Odatda jasad qo'yiladigan laxad ayvondan chuqurroq bo'lgan. Yorma go'rlardan jasad ostiga to'shama qilingan, ularda ayrim hollarda gazmol-mato, charm oyoq kiyim qoldiqlari uchraydi. Laxadga kirish teshigi g'ishtlar bilan berkitilgan. Yorma go'rlarda oddiy go'rlarga nisbatan buyumlar ko'proq qo'yilgan.

Bunday qabrlar Farg'ona vodiysining boshqa joylarida ham uchraydi. Masalan: Qorabuloq, Qora Mo'ynoq, Qalantarxona kabi ko'xna mozorlarda ham bu xolatlar uchraydi. Faqat Munchoqtepadagi go'rlarda boshqa qabrlarga nisbatan yangilik bor, bu laxadga qamish tobut qo'yish odatidir. Yorma go'rlarda jaslarni tobutga solib ko'mish Farg'ona vodiysida kam kuzatilgan [1. B – 78].

1988-1989-yillari Munchoqtepa II da 8 ta yerosti sag'ana kovlab ochildi. Sag'analar katta-kichikligiga qarab, 1 tadan 50 tagacha jasadlar ustma-ust qilinib dafn etilgan. Marhumlar yonida aniqlangan zeb-ziyat va taqinchoqlar soni salkam 10000 ga, mehnat va jangovar qurol-yarog'lar esa 3000 ga boradi. Mashaqqatli mehnatlar orqali qurilgan sag'analar poliga marhumlar uch xil yo'l bilan dafn etilgan:

1. Qamish tobutga qo'yish;
2. Savatlarga qo'yish;
3. Maxsus to'shamaga qo'yish.

Savatga asosan yosh bolalar qo'yilgan. Bu odat Farg'ona hududida hali aniqlanganicha yo'q. Munchoqtepadan ikkita savatga solingan bolaning jaslari ayol tobutining ustiga qo'yilgan holda topilgan [4. B – 3]. Bu holat ayol va bolalarning orasida qarindoshlik rishtalari borligini ko'rsatishning bir belgisi bo'lishi mumkin. Lekin, aynan nimani ifoda etayotgani noma'lum ekanligiga qaraganda, ularni ona-bola deb atash ham mumkin. Yerga to'shama qamish tobutlarsiz dafn etish sag'analarining eng dastlabki davriga taalluqlidir. Hozirgi kunda Munchoqtepa sag'analariga har tomondan eng yaqini Choch vohasidagi ana shunday inshootlar bo'lib qolmoqda.

1989-1992-yillarda №1 shurfdan o'tkazilgan qazishmada Balandtepadan kulolchilik charxida tayyorlangan sopol idishlar topilgan. Bular qadah, piyola kabi idishlar bo'lib milodiy I-III asrlarga oid ekanligi aniqlangan. Ushbu davr materiallari ichida sirtiga tirnab naqsh solingan sopollar ham uchraydi. Vodiya bunday tipdagi sopollar keng tarqalgan edi va ularning sanasi milodiy I-II asrlarga to'g'ri keladi [5. B – 5].

Bu yerda oyoq kiyimlar, ro'mol qoldiqlari ham topilgan. Topilmalar orasidan yog'och g'ilofga solingan musiqa asboblari ham bor. Ulardan biri hozirgi qo'shnayning o'zginasi. Bundan kelib chiqdiki, qo'shnayning paydo bo'lganiga 1500 yildan oshibdi.

Shavkat Mirziyoyev 2016-yilning 2-noyabrida Namangan viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutqida viloyatdagi arxeologik va me'moriy yodgorliklar haqida o'zlarining quyidagi fikrlarini bildirib o'tgan edi: "...Bu diyordagi mashhur Axsikent, Munchoqtepa, Ayrtom, Mug'tepa kabi me'moriy yodgorliklar o'tmishda ushbu hududda o'ziga xos sivilizatsiya va boy madaniyat rivojlanganidan dalolat beradi".¹ Yodgorlikning qimmatli tarixga ega ekanligini xis etgan xolda O'zbekiston Respublikasida qidiruv va qazuv ishlari keng tarzda amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan. Keyingi yillarda esa bu yerda qidiruv va qazuv ishlari amalga oshirila boshlandi. 2023-yil Balandtepa (mahalliy aholi tilida Munchoqtepa) yodgorligi bo'yicha tadqiqotlar davom ettirilib, shaharning tarixiy topografiyasini aniqlovchi yangi materiallar qo'lga kiritildi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Munchoqtepa yodgorligidan topilgan har qanday buyumlar ko'hna farg'onaliklarning xo'jalik yuritish, turmush tarzi va eng asosiysi islomga qadar mavjud bo'lgan dafn marosimlari xususida muhim ma'lumot beradi. Marhumlar tobutlariga ustboshlari, qurol-yarog'lari, zeb-ziynatlari, idish-tovoqlari va asbob-uskunalar bilan dafn etilgan xolatlari aniqlangan. Mavjud bo'lgan xilxonalar seysmik jihatdan juda mustahkam qilib qurilgan, ularga kuchli yer silkinishlari ham ta'sir eta olmagan. Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, Munchoqtepa joylashgan hudud uzoq vaqt doimiy ravishda Choch va Farg'ona, Farg'ona va Sharqiy Turkiston qolaversa dehqonlar va chorvadorlar manfaatini birlashtiruvchi nuqta vazifasini bajargan. Elshunoslik ma'lumotlariga tayangan xolda va arxeologik topilmalarga asoslanib bu yerdagi aholiga o'tmishda o'troqlashgan ko'chmanchilar avlodi deb qarash mumkin.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida Pop shahri atrofidagi yodgorliklarning paydo bo'lishi, rivojlanish dinamikasi o'rganildi va ommaga tadqiq etildi. Arxeologik olimlarning xulosalaridan esa Farg'onaning ilk o'rta asrlar davridagi shaharlarining rivojlanishi O'rta Osiyo urbanizatsiya jarayonlaridan ortda qolmaganligini va shu bilan birga faqat vodiy uchun o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

¹ Batafsil qarang: <https://kun.uz/250997450?q=%2Fuz%2F250997450> (foydalanilgan sana: 19.08.2024)

Foydalangan adabiyotlar:

1. Matboboyev B. X. Qadimgi Farg'onaning ilk o'rta asrlar madaniyati. Samarqand.2009. B – 569.
2. Матбобоев Б. Х., Шамсиддинов Р. Т., Мамажонов А. Буюк ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. “Мерос”. Андижон 1994. Б – 76.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T – 5. “Davlat ilmiy nashriyoti”. T.:2000. B – 975.
4. Abduvaliyeva N. A. Modern science and research// Munchoqtepa arxeologik kompleksi va uning tavsifi. 2023. B – 7.
5. Aloxunov A. A., Abduraliyeva N. A. O'zbekistonda Fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali// Qadimgi Pop shahar xarobalari o'rganilishinining ayrim masalalari. T.:2022. B – 8.
6. <https://kun.uz/250997450?q=%2Fuz%2F250997450>
7. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Munchoqtepa_yodgorliklari
8. <https://lex.uz/docs/-4543266?ONDATE=09.01.2021>